



## INSON HUQUQLARIGA RIOYA ETILISHINI NAZORAT QILISHNING XALQARO MEXANIZMLARI

Abdusattorova Farangiz

Toshkent Davlat Yuridik Universiteti

Xususiy huquq fakulteti

Fuqarolik va biznes huquqi 3-kurs

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17792717>

### ARTICLE INFO

Received: 11<sup>th</sup> November 2025

Accepted: 12<sup>th</sup> November 2025

Published: 30<sup>th</sup> November 2025

### KEYWORDS

*Inson huquqlari, BMT, xalqaro mexanizmlar, Inson huquqlari komissiyasi, Xavfsizlik kengashi, Xalqaro Mehnat Tashkiloti, YUNESKO, YUNISEF, mehnat huquqlari, diskriminatsiya, xalqaro huquq, milliy qonunchilik, xalqaro konvensiyalar, nazorat organlari.*

### ABSTRACT

*Mazkur maqolada inson huquqlarini ta'minlash va ularning xalqaro darajadagi himoya mexanizmlari tahlil qilinadi. Inson huquqlarining xalqaro miqyosda e'tirof etilishi, xususan, BMTning ushbu yo'nalishdagi o'rni va funksiyalari, asosiy organlarining vakolatlari hamda inson huquqlariga oid universal tamoyillarning shakllanishi ilmiy asosda yoritiladi. Shuningdek, Xalqaro Mehnat Tashkiloti (XMT) va uning mehnat munosabatlaridagi nazorat vazifalari, Kanada sud amaliyotidagi «Ontario (Human Rights Commission) and O'Malley v. Simpsons-Sears Limited» keysining mazmuni hamda diniy e'tiqod asosida yuzaga kelgan kamsitilishning xalqaro-huquqiy talqinlari tahlil qilinadi. Maqolada O'zbekistonning milliy qonunchiligida inson huquqlari bilan bog'liq so'nggi islohotlar, xususan, yangi Mehnat kodeksi va xalqaro konvensiyalarning ratifikatsiya qilinishi haqida ma'lumotlar keltiriladi. YUNESKO va YUNISEF kabi BMTning ixtisoslashgan organlarining faoliyati va ularning inson huquqlarini himoya qilishdagi o'rni ham alohida ko'rib chiqiladi. Tadqiqot davomida taqqoslash, tahlil va umumilmiy metodlar qo'llanilgan.*

### Kirish

Har bir davrda inson huquqlarini ta'minlash va rioya etilishini nazorat qilish o'z dolzarbligini yo'qotmaydi. Insonning huquq, erkinliklari hamda manfaatlarini har tomonlama ta'minlash davlatlarning asosiy vazifasidir. Butun jahon miqyosida insonning asosiy erkinliklari va huquqlarini himoya qilish davlatning asosiy vazifalaridan biri sifatida qaraladi. Inson huquqlarini ta'minlash deganimizda, birinchi o'rinda ko'z oldimizga (keyingi o'rinlarda BMT) keladi. BMT 1945-yil 26-iyun xalqaro tinchlik va xavfsizlikni qo'llab-quvvatlash hamda mustahkamlash, davlatlararo hamkorlikni rivojlantirish va inson huquqlarini himoya etish maqsadida tashkil etilgan. Shunday ekan, BMTni inson huquqlarini himoya qilishda universal organ deb atasak bo'ladi. Shu jumladan, bu borada O'zbekiston ham o'z majburiyatlariga ega, shunday ekan hozirgi paytda inson huquqlariga oid ko'plab islohatlar qilib borilmoqda. O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti Karimov I.A. mazkur tashkilotga yuqori baho berib, "Birlashgan Millatlar tashkiloti barcha davlatlarning, mintaqalarning, butunjahon hamjamiyatining eng muhim muammolarini muhokama qilish va yechish uchun tuzilgan noyob tashkilotdir,—" degan edi. Tadqiqotning maqsadi inson huquqlariga rioya etilishini nazorat qilishning xalqaro (universal) mexanizmlar faoliyatini o'rganish. Inson huquqlari sohasida xalqaro hujjatlar normalarini tahlil qilish, ularni milliy

qonunchilik bilan bog'lash va xalqaro huquq fanidan inson huquqlari sohasida yuzaga kelgan key «**ontario (human rights commission) and o'malley v. simpsons-sears limited**» bilan tanishish ham tadqiqotimizning bir qismidir. Ushbu tadqiqotni qilish jarayonida qiyoshlash, tahliliy va boshqa umumilmiy metodlardan foydalaniladi.

### Asosiy qism

XX asrga kelib inson huquqlari nafaqat bir davlat, balki xalqaro jamiyat uchun ham bog'liq bo'la boshladi. Ikkinchi jahon urishidan keyin inson huquqlarini ta'minlash bo'yicha xalqaro maxsus organlar tashkil etish va hujjatlar qabul qilinishini taqazo etdi. Buning natijasida, inson huquqlarining xalqaro himoyasi tushunchasi paydo bo'ldi. **Inson huquqlarining xalqaro himoyasi** – bu inson huquqlari va erkinliklarini, ushbu huquq va erkinliklarning davlatlar tomonidan amalda hayotga tatbiq etilishi bo'yicha davlatlarning majburiyatlarini belgilab belgilab beruvchi va mustahkamlavchi huquqiy normalar yig'indisi, shuningdek, ushbu huquq sohasi bo'yicha davlatlar o'z majburiyatlarini bajarish ustida xalqaro nazorat mexanizmi va alohida shaxsning buzilgan huquqlarini bevosita himoya qilishdir<sup>3</sup>. Inson huquqlari hamda boshqa sohalarda xalqaro birlikni ta'minlash va nazorat qilish uchun xalqaro tashkilotlar tuziladi.

Inson huquqlarini himoya qilishda BMTning o'rni katta. "Inson huquqlari" atamasi BMT Nizomida yetti marotaba keltirilgan, bundan BMTning asosiy yo'nalishklaridan biri inson huquqlarini ta'minlash va himoya qilish ekanligini ko'rishimiz mumkin. BMTni a'zoli bo'yicha universal xalqaro tashkilot deb ta'rifladik. Xalqaro tashkilot atamasi hukumatlararo va nohukumat tashkilotlarga nisbatan qo'llaniladi. Odatda, xalqaro-huquqiy hujjatlarda xalqaro tashkilot – bu hukumatlararo tashkilot deb ko'rsatilgan ta'rifdan boshqa "xalqaro tashkilot" tushunchasi mavjud emas. Lekin ko'p olimlar xalqaro tashkilot deganida hukumatlararo xalqaro tashkilotlarni nazarda tutadi. Bunday xalqaro tashkilotlar tizimida BMT huddi yadro kabi xizmat qiladi va uning Nizomi esa *xalqaro hamjamiyatning konsitutsiyasi* deb ham atalishi bejiz emas. BMT nizomining 7-moddasida ta'kidlanganidek, BMT organlari asosiy va yordamchi organlarga bo'linadi. Bu organlar o'z faoliyat doirasidan kelib chiqib inson huquq va erkinliklariga rioya etilishini ta'minlaydi. Bu organlardan tashqari Nizomning 57-moddasida ko'rsatilgan ixtisoslashtirilgan organlar ham uning tarkibiga kiradi. Asosiy organlariga Bosh Assambleya, Xavfsizlik Kengashi, Iqtisodiy va Ijtimoiy Kengash, Vasiylik Kengashi (2006-yildan buyon vaqtincha to'xtatilgan), Xalqaro Sud va Kotibiyat kiradi. Yordamchi organlariga esa Tashkilot faoliyatiga ko'maklashadigan qo'mita, komissiya va boshqa organlar kiradi. Birinchi galda, BMTning asosiy organlariga to'xtalib o'tsak.

**Bosh Assambleya** – uning asosiy vazifasi o'rganish, tatbiq etish va tavsiyalar berishdir. Inson huquqlariga oid muammolarni o'rganishni Assambleya Iqtisodiy va Ijtimoiy kengashga yoki boshqa ixtisoslashgan organga yuklashi mumkin. U Vakillikni amalga oshiruvchi markaziy organ hisoblanadi.

**Iqtisodiy va Ijtimoiy kengash** – inson huquqlariga oid hujjatlarni Ijtimoiy qo'mita tayyorlaydi va boshqa ixtisoslashtirilgan organlar bilan BMT nomidan bitimlarni tuzadi. BMT Ustavining 62-moddasiga binoan Iqtisodiy va Ijtimoiy kengash inson huquqlari va asosiy erkinliklarini hurmat qilinishi hamda ularga rioya etilishini rag'batlantirish maqsadida tavsiyalar berishi mumkin. Inson huquqlari bo'yicha xalqaro konfiresiyalar chaqirish ham uning vakolatlari sirasiga kiradi. BMT Ustavining 68-moddasiga muvofiq "Ijtimoiy va iqtisodiy sohalarda ham inson huquqlarini rag'batlantirish bo'yicha komissiyalar tuzadi". Iqtisodiy va Ijtimoiy kengash inson huquqlari masalalarida yordam ko'rsatishni ko'zlab Inson huquqlari Komissiyasi, Xotin-qizlar ahvoli bo'yicha Komissiya, Ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy huquqlar bo'yicha qo'mita ta'sis etgan.

**Xavfsizlik kengashi** – xalqaro tinchlik va xavfsizlikni ta’minlash uchun javobgardir. Agar, inson huquqlari ommaviy tarzda buzilsa va kamsitilsa, buni tinchlikka qarshi harakat deb topadi va tegishli choralarni ko’radi.

**Xalqaro sud** – davlatlar o’rtasidagi nizolarni ko’radi, hamda BMT va ixtisoslashtirilgan organlar uchun tavsiyaviy xarakterga ega bo’lgan xulosalar beradi. Sud Bosh Assambleya va Xavfsizlik kengashi tomonidan saylangan 15 nafar a’zosidan iborat. Ular 9 yilga saylanadi.

**Vasiylik kengashi** – davlatlarni mustaqil bo’lishga va o’z o’zini boshqarishga tayyorlaydi. Ammo, o’z vazifasini yaxshi bajara olmagan uchun 2006-yildan buyon faoliyati vaqtincha to’xtatilgan.

**Kotibiyat** – Bosh kotib va boshqa xodimlarda iborat bo’lib, ular Bosh Assambleya va Tashkilotning boshqa asosiy organlari topshirig’iga ko’ra kundalik ishlarni amalga oshiradi.

**XMT** – BMTning ixtisoslashgan muassasasi. 1919-yilda Millatlar ligasi huzurida komissiya sifatida tashkil etilgan bo’lib, bu komissiya mehnatga oid qonun hujjatlarini ishlab chiqish hamda mehnat sharoitlarini yaxshilash masalasida konvensiya va tavsiyalarni berish, ishlab chiqish yuzasidan faoliyat olib borgan. XMT tomonidan 8 soatlik ish kuni, onalikni himoya qilish va bollar mehnatiga oid qonunlar qabul qilishda va ish o’rinlarining xavfsizligini ta’minlashda katta hissa qo’shdi.

Mehnatga oid munosabatlarda insonning shaxsiy va kasbiy huquqlarining buzilish holatlari haligacha kuzatiladi, bu borada milliy qonunchiligimizda ham, jahon miqyosida ko’rilgan bir qancha holatlar mavjud. Bunga misol qilib O’Malley Simpsons-Searsga qarshi ishini ko’rishimiz mumkin. Bu keys jahonda «**ontario (human rights commission) and o’malley v. simpsons-sears limited**» nomi bilan mashhur. 1985 yil: 29 yanvar va 1985 yil: 17 dekabrda sud ishlari Kanada Oliy sudida bo’lib o’tadi. Shikoyat mazmuni quyidagidan iborat edi “Tereza O’Malley Simpsons-Sears chakana sotuvchisida ishlagan ettinchi kun adventisti edi . O’z dinining bir qismi sifatida unga juma kuni quyosh botishidan shanba kuni quyosh botishiga qadar ishlash taqiqlangan. Juma va shanba kunlari ishni talab qilmaydigan to’liq kunlik smenalar mavjud emas edi, shuning uchun kompaniya uning ishini to’xtatdi. Simpsons-Sears barcha xodimlaridan juma va shanba kunlari ishlashni talab qilib, uni ataylab kamsitishga urinmaganligini, lekin bu barcha xodimlarga qo’ygani neytral talab ekanligini ta’kidladi. Oliy sud oldida turgan masala barcha xodimlarning juma va shanba kunlari ishlash talabi uning dinini kamsituvchimi yoki yo’qmi edi”. Ushbu vaziyatda birinchi o’rinda xodim o’zining shaxsiy huquqi, ya’ni e’tiqod asosida kamsitilgani yuzasidan shikoyat qiladi. Inson hayotida yashar ekan, o’z ehtiyojlarini qondirish uchun mehnat qilishga va daromad topishga intiladi. Ma’lumki, bunday vaziyatda har bir xodimning mehnat huquqlarini shu bilan birga shaxsiy huquqlarini himoya qilish barcha ish beruvchilarning asosiy burchlardan biri bo’lishi kerak. Yuqorida aytilgan vaziyatda ham, xodimning mehnat huquqlariga bo’g’liq bo’lgan holda uning shaxsiy huquqlari buzilgan. Ushbu vaziyat bo’yicha so’ngi qarorga keladigan bo’lsak, sud tomonidan O’malleyning shaxsiy huquqlari buzilgan deb topiladi va ish uning foydasiga hal bo’ladi. Bu vaziyatda Inson huquqlari bo’yicha kengashning rolini ko’rishimiz mumkin, u xodimning e’tiqodiga ko’ra, *diskriminatsiya (huquqlarning cheklanishi)* qilinganini aytib o’tadi va unga o’z e’tiqodini amalga oshirish uchun juma va shanba kunlari ishlamaydigan ish jadvali yaratib beriladi.

*XMTning o’ziga xosligi uning organlaridagi uch tomonlama vakillik hisoblanadi: hukumatlar, ish beruvchilar va mehnatkashlar (kasaba uyushmalari).* XMTni tashkil etuvchilarning fikriga ko’ra, ushbu shakldagi vakillik hukumatlar vositachiligida ish beruvchilar bilan mehnatkashlar o’rtasidagi muloqotga yordam beradi (ijtimoiy hamkorlik g’yasi). Mehnat qonunchiligi bo’yicha so’ngi yillarda ham xalqaro, ham milliy qonunchiligimizga ko’plab

o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilmoqda. Misol uchun, brinchi o'rinda 2023-yil 30-apreldan yangi tahrirda kuchga kirgan O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksini aytishimiz mumkin. 581ta moddadan iborat ushbu kodeksda mehnat munosabatlari keng doirada tartibga soluvchi qilib ishlab chiqilgan. Mehnat kodeksining 21-moddasida xodimning 12ta huquqlari alohida sanab o'tilgan, eski qonunchiligimizda bu huquqlar 9tani tashkil etar edi. Bu huquqlar shunchaki sanab o'tilmasdan, ularni ta'minlash bo'yicha ham alohida normalar kirilgan. *2024-yil 19-iyundagi O'RQ-932-son Qonuni bilan 1981-yilda Jenevada Xalqaro mehnat tashkilotining ishlayotgan erkak va ayollar uchun teng munosabatlar va teng imkoniyatlar: oilaviy majburiyatlarga ega xodimlar to'g'risidagi 156-sonli Konvensiyasini ratifikatsiya qilindi.*

Yana bir BMTning ixtisoslashgan organlari safiga **YUNESKO** (ing. UNECKO; Birlashgan Millatlar tashkilotining ta'lim, fan va madaniyat masalalari bo'yicha tashkilot). Tashkilotning maqsadi jahon merosiga ro'yxatiga olingan madaniyat meroslarini, tarixiy bino va obidalarni, diqqatga sazovor joylarni himoya qilish hamda xalqlar va davlatlar o'rtasida fan, adabiyotni rivojlantirish va himoya qilish masalalarini ham o'zining vazifasiga kiritgan.

**Birlashgan Millatlar Tashkilotining bolalar jamg'armasi (YUNISEF).** Dunyo bolalari huquqlarini himoya qiladi. Ular bolalar salomatligi va farovonligini ta'minlash bo'yicha choralar ko'radi hamda bu sohada o'z a'zolariga majburiyatlar yuklaydi. Bu borada O'zbekiston ham o'zining bir qancha majburiyatlariga egadir. Xususan, yangi tahrirda qabul qilingan Konstitutsiyamizning 44-moddasida *"Bolalar mehnatining bolaning sog'ligiga, xavfsizligiga, axloqiga, aqliy va jismoniy rivojlanishiga xavf soluvchi, shu jumladan uning ta'lim olishiga to'sqinlik qiluvchi har qanday shakllari taqiqlanadi"*. Deb yozib qo'yilgan. Bolalar deyilganda, o'n sakkiz yoshgan to'lmaganlar tushuniladi. Ularning mehnati sog'ligiga, xavfsizligiga, axloqiga, aqliy va jismoniy rivojlanishi bilan birga ta'lim olishiga ham halaqit qilmasligi kerakligi aytilgan.

Bu organlar ba'zi manbalarda konvensiyaviy yoki yordamchi, ba'zi manbalarda nazorat organlari deb yuritiladi. Misol uchun, "Inson huquqlari" Yusupova F. 2024-yilda nashr qilingan o'quv qo'llanmasida bu organlarni konvensiyaviy organlar deb ta'riflagan. Xuddi shu yilda mualliflar jamoasi, Huquqni muhofaza qilish akademiyasi tomonidan chop etilgan "Inson huquqlari" darsligida shartnomaviy organlar deb yoritilgan. 2006-yildagi akademik A.X.Saidovning "Inson huquqlari bo'yicha xalqaro huquq" darsligida konvensiyaviy organlar deyilish bilan bir qatorda nazorat organlari ham deyilgan. Bularning barchasi bir ma'noni anglatadi. Barchaga tushunarli bo'lishi uchun muhokama paytida shartnomaviy organlar deb yuritsak maqsadga muvofiq bo'ladi. Ular BMTning inson huquqlari sohasida bir qator universal hujjatlar asosida tashkil etilgan. **BMT doirasida inson huquqlari bo'yicha shartnomaviy organlari** – *BMTning inson huquqlarini himoya qilish bo'yicha asosiy xalqaro shartnomalar asosida tashkil etilgan to'qqizta qo'mita ham ushbu shartnomalar bo'yicha davlatlar o'z zimmlariga olgan majburiyatlarga rioya etilishlari ustidan nazoratni ta'minlash maqsadida faoliyat yuritadi.*

Bu organlardan tashqari, **BMTning Inson huquqlari bo'yicha kengash** ham alohida o'ringa ega. Inson huquqlari bo'yicha kengash (2006-yilgacha Komissiya deb yuritilgan) 1946-yilda tashkil etilgan bo'lib, u inson huquqlari bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqadi va xalqaro hujjatlarning loyihalarini tayyorlaydi. Shu bilan birga Bosh Assambleya hamda Iqtisodiy va Ijtimoiy kengash yuklagan topshiriqlarni bajaradi. Inson huquqlari bo'yicha kengash muayyan bir davlatda inson huquqlari bilan bog'liq masalalar buzilayotgan bo'lsa, maxsus ishchi guruh yoki alohida shaxs, ya'ni maxsus ma'ruzachi tayinlash haqida qaror qabul qilishi mumkin. Misol uchun, 1967-yildagi Janubiy Afrikada inson huquqlari bo'yicha maxsus ishchi guruh dastlabki organ bo'ldi deb aytolamiz. Ko'p hollarda davlatdagi inson huquqlari buzilishiga oid holat yaxshilanganidan so'ng Kengash bu kabi organlarni tugatadi.

Xalqaro huquqning turli sohalari kabi, bugungi kunda **xalqaro huquqda inson huquqlari** (“Международное право прав человека”, “International human rights law”) nomida alohida ham inson huquqlari, ham xalqaro huquqning o‘zaro tutashgan maxsus sohasi vujudga keladi<sup>12</sup>.

Inson huquqlari sohasida qabul qilibgan hujjatlarga alohida to‘xtalib o‘tish lozim. BMTning inson huquqlarini himoya qilish sohasidagi faoliyat yo‘nalishlarining katta qismi uning xalqaro-huquqiy normalar yaratish borasidagi norma ijodkorligi faoliyatida o‘z ifodasini topadi.

Inson huquqlariga oid xalqaro hujjatlar ichida Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi alohida o‘ringa ega. U muqaddima va 30 moddadan iborat bo‘lib, uning normalarida insonning asosiy huquq va erkinliklari, shaxsning teng huquqliligi hamda uning qadr-qimmati har narsadan ustunligi haqida gap ketadi.

Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 1-moddasida barcha odamlar erkin, qadr-qimmat va huquqlarda teng bo‘lib tug‘iladilar. Ular aql va vijdon sohibidirlar va bir-birlariga birodarlarcha muomala qilishiz zarur<sup>15</sup>. Deklaratsiyaning 1-moddasidanoq insonning qadr-qimmati va huquqlarining tengligi belgilab qo‘yilgan. Bundan tashqari, o‘zaro do‘stona munosabatta bo‘lishlari zarur deyilganda, bir-birlarini kamsitmasdan insoniy muomalada bo‘lishi kerakligi ham alohida qayd etilgan. Albatta, bu kabi normalarga ko‘plab misol aytishimiz mumkin, ularning har biri insonning huquq va erkinliklarini ta‘minlashga xizmat qiladi. Insonning eng muhim huquqi Deklaratsiyaning 3- moddasida belgilangan, bunga ko‘ra har kim yashash huquqiga, erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqiga egadir. Xuddi shu norma Konstitutsiyamizning 25-moddasida belgilangan. Inson hayotiga suiqasd qilish eng og‘ir jinoyat deb topiladi. O‘zbekiston Respublikasida o‘lim jazosi taqiqlanadi. O‘lim jazosini taqiqlash bo‘yicha 2005-yil 1-avgustda Prezident Farmoni imzolanadi va 2008-yil 1-yanvardan kuchga kirgan. Qabul qilingan bu Farmon insonning ajralmas huquqi hisoblangan yashash huquqidan ayirib bo‘lmasligi va insonparvarlik prinsipiga amal qilishini ta‘minlash uchun asos bo‘ladi deb aytolamiz.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining ikkinchi bo‘limida inson huquqlariga doir barcha normalar Deklaratsiya mos tarzda tuzilgan. Yangi tahrirda qabul qilingan Konstitutsiyamizning 20-moddasida yangi norma sifatida “Davlat organlari tomonidan insonga nisbatan qo‘llaniladigan huquqiy ta‘sir choralari *mutanosiblik prinsipiga* asoslanishi va qonunlarda nazarda tutilgan maqsadlarga erishish uchun yetarli bo‘lishi kerak” deb belgilab qo‘yildi.

Inson huquqlari sohasida yurtimizda ham so‘ngi yillarda ko‘plab ishlar olib borilmoqda. Bunga birinchi navbatda *Inson huqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasining Milliy strategiyasini* misol qilishimiz mumkin. Ushbu strategiya O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 22-iyundagi PF-6012-son Farmoni bilan tasdiqlangan bo‘lib, o‘z oldiga inson huquqlari sohasida amalga oshirilishi zarur bo‘lgan bir qancha ustuvor maqsadlarni qo‘ygan.

### **Xulosa**

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib xulosa qiladigan bo‘lsak, inson huquqlarini xalqaro darajada ta‘minlash va himoya qilish har bir davrda o‘z ahamiyatini yoqotmaydi. Bu masalada, hozirgi kungacha ham, hozirda va undan keyin hujjatlar qabul qilinishi va ularning ijrosi bo‘yicha amaliy ishlar qilinishi davom etaveradi. Xalqaro darajada inson huquqlarini ta‘minlash uchun avvalo, miliy mexanizmlarimizni hamda sud tizimimizni ham rivojlantirishimiz zarur. *Bir sud – bir instansiya* tamoyili sud qarorlarining adolatli, qonuniy va barqarorligini ta‘minlashda bosh mezon bo‘lishi lozim.

Birinchi galda fuqarolarning huquqiy onggi va madaniyati yuksaltirish davlat organlarining asosiy vazifasi hisoblanishi kerak. Bu borada quyidagi takliflarni berib o'tmoqchiman:

**Birinchi**dan, Respublikamizda inson huquqlarini xalqaro standartlarga mos ravishda ta'minlash borasida yangi qonun hujjatlarini qabul qilish va ularning ijrosini ta'minlash. **Ikkinchi**dan, inson va fuqarolarning davlat organlariga bo'lgan ishonchini oshirish uchun amaliy ishlar qilish. **Uchunchi**dan, xalqaro tashkilotlar bilan munosabatlarni yanada rivojlantirish, ayniqsa, inson huquqlari sohasida yuzaga keladigan muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etish.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Каримов И.А. БМТ Бош Ассамблеясининг 48-сессиясидаги маъруза / Биздан овоз ва обод Ватан қолсин. – Т.: Ўзбекистон, 1996. – Б. 47.
2. Mirziyoyev Sh.M. yangi O'zbekistonda erkin va farovon yashaylik. – Т.: TASVIR nashriyot uyi, 2021. – B. 25.
3. Mirziyoyev Sh.M. 2023-yil 19-sentabr kuni Nyu-York shahridagi Birlashgan Millatlar Tashkiloti bosh qarorgohida BMT bosh assambleyasida 78-sessiyasida so'zlagan nutqidan.
4. O'zбекистон Respublikasi Konsitutsiyasi, – Т.: O'zbekiston, 2023.
5. O'zбекистон Respublikasi Mehnat kodeksi, – Т.: O'zbekiston, 2023.
6. 2024-yil 19-iyundagi "Xalqaro mehnat tashkilotining ishlayotgan erkak va ayollar uchun teng munosabatlar va teng imkoniyatlar: oilaviy majburiyatlarga ega xodimlar to'g'risidagi 156-sonli konsvensiyani (Jeneva, 1981-yil 23-iyun) ratifikatsiya qilish haqida" O'RQ-932-son Qonuni.
7. 2005-yil 1-avgustdagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston respublikasida o'lim jazosini bekor qilish to'g'risida"gi PF-3641-son Farmoni.
8. 2020-yil 22-iyundagi "Inson huqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasining Milliy strategiyasini asdiqlash to'g'risida" PF-6012-son Farmoni.
9. 1948 yil 10 dekabrda "Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi".
10. 1945 yil 26 iyundagi "Birlashgan Millatlar Tashkiloti Nizomi".
11. Инсон ҳуқуқлари. Дарслик. Ҳуқуқни муҳофаза қилиш академияси. – Т.: Impress media, 2024. – Б. 40
12. Международное право. /Под. ред.Бекашева К.А. – М.: Проспект. 1999. – С. 200.
13. Саидов А.Х. Международное право прав человека / Отв. Ред. Б.Н. Топорнин. – М.: МЗ-Пресс, 2002.
14. Саидов А.Х. Инсон ҳуқуқлари бўйича халқаро ҳуқуқ. Дарслик. – Тошкент: Konsauditinform-Nash, 2006. – Б.152.
15. Хакимов Р. Узбекистан и Организации Объединенных Наций -3-е издую допю – Т.: Zar Qalam, 2006. – стр. 87.
16. С.Дикман. Международные стандарты в области прав человека.
17. Xalqaro huquq: Ma'ruzalar kursi / Mas'ul muharrir yuridik fanlar doktori, professor A. X. Saidov. – Т.: O'zбекистон Respublikasi IIV Akademiyasi, 2012. – 156 bet.
18. Муминов А.Р. Халқаро ташкилотлар ҳуқуқи. – Т.: Lesson press, 2019. Б.107
19. O'zbekiston Respublikasi va inson huquqlari bo'yicha xalqaro shartnomalar // Ma'sul muharrir A.X. Saidov. – Т.: Adolat, 2002, 49-bet
20. [www.norma.uz](http://www.norma.uz)
21. <http://www.un.org/ru>
22. [https://en.wikipedia.org/wiki/Ontario\\_\(Human\\_Rights\\_Commission\)\\_v\\_S\\_impsons-Sears\\_Ltd](https://en.wikipedia.org/wiki/Ontario_(Human_Rights_Commission)_v_S_impsons-Sears_Ltd)